



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI .....	18
<b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b> <b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b>	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....	22
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b>	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
<b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b>	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	32
<b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b>	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
<b>BAROTOV UMIDJON MAHMUD O'G'LI</b>	



# HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna  
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi  
Email: h.mavjuda.88@gmail.com  
ORCID: 0009-0008-1584-0869

**Annotatsiya:** Maqolada hududlarda lokal turizm xizmatlarining tarkibi, shakllanish omillari va rivojlanish dinamikasi Andijon viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda lokal turizm xizmatlari joylashtirish vositalari, turistik firma va tashkilotlar, transport, ovqatlanish, savdo, sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy hamda raqamli-axborot xizmatlari bilan uzviy bog'liq kompleks xizmatlar tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Maqolada 2020–2024-yillar kesimida turizm faoliyati, 2021–2025-yillar kesimida xizmatlar sohasi dinamikasi, joylashtirish vositalari quvvati, ichki turizm safarlari, turistik firmalar faoliyati va hududlar kesimidagi tafovutlar tahlil etildi.

Natijalar Andijon viloyatida xizmatlar sohasi hajmi barqaror o'sib borayotganini, turizm infratuzilmasida esa ijobiy siljishlar bilan birga hududiy nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 2025-yilda viloyatda bozor xizmatlari hajmi 53 969,6 mlrd so'mga yetgan, 2024-yilda turistik firmalar soni 16 taga, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 38 taga, ularda joylashtirilgan shaxslar soni 76,9 ming kishiga yetgan. Maqolada lokal turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, tumanlararo turistik klasterlar yaratish, Xonobod rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish, raqamli marketingni kuchaytirish hamda oilaviy mehmon uylari va gastronomik turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** lokal turizm, hududiy turizm, turizm xizmatlari, Andijon viloyati, ichki turizm, joylashtirish vositalari, turistik firma, xizmatlar sohasi, turistik infratuzilma, turistik klaster.

**Abstract:** The article analyzes the composition, formation factors, and development dynamics of local tourism services in regions, using the example of Andijan region. The study considers local tourism services as an integrated system closely linked with accommodation facilities, tourism firms and organizations, transport, catering, trade, health and wellness, cultural-educational, and digital information services. The paper examines tourism activities for the period 2020–2024, the dynamics of the service sector for 2021–2025, as well as the capacity of accommodation facilities, domestic tourism flows, activities of tourism firms, and regional disparities.

The results indicate that the volume of services in Andijan region is steadily increasing, while tourism infrastructure demonstrates positive changes alongside existing territorial imbalances. In particular, in 2025 the volume of market services in the region reached 53,969.6 billion UZS; in 2024 the number of tourism firms reached 16, the number of hotels and similar accommodation facilities reached 38, and the number of accommodated persons reached 76.9 thousand. The article develops scientific and practical recommendations for diversifying local tourism services, creating inter-district tourism clusters, effectively utilizing the recreational potential of Khanabad, strengthening digital marketing, and developing family guest houses and gastronomic tourism.

**Keywords:** local tourism, regional tourism, tourism services, Andijan region, domestic tourism, accommodation facilities, tourism firms, service sector, tourism infrastructure, tourism cluster.

**Аннотация:** В статье анализируются структура, факторы формирования и динамика развития локальных туристических услуг на примере Андижанской области. В исследовании локальные туристические услуги рассматриваются как комплексная система, тесно связанная со средствами размещения, туристическими фирмами и организациями, транспортом, общественным питанием, торговлей, оздоровительными, культурно-просветительскими, а также цифровыми информационными услугами. В статье проанализированы туристическая деятельность за 2020–2024 годы, динамика сферы услуг за 2021–2025 годы, вместимость средств размещения, внутренние туристические потоки, деятельность туристических фирм и региональные различия.



Результаты показывают, что объем сферы услуг в Андижанской области стабильно растет, при этом в туристической инфраструктуре наряду с положительными изменениями сохраняются территориальные диспропорции. В частности, в 2025 году объем рыночных услуг в регионе достиг 53 969,6 млрд сумов; в 2024 году количество туристических фирм составило 16, количество гостиниц и аналогичных средств размещения — 38, а число размещенных лиц достигло 76,9 тыс. человек. В статье разработаны научно-практические предложения по диверсификации локальных туристических услуг, созданию межрайонных туристических кластеров, эффективному использованию рекреационного потенциала Ханабада, усилению цифрового маркетинга, а также развитию семейных гостевых домов и гастрономического туризма.

**Ключевые слова:** локальный туризм, региональный туризм, туристические услуги, Андижанская область, внутренний туризм, средства размещения, туристические фирмы, сфера услуг, туристическая инфраструктура, туристический кластер.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot, bandlik, investitsiya faolligi va hududiy raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy tarmoqlardan biriga aylangan. Turizm xizmatlari esa xizmatlar sohasi tarkibida eng ko'p multiplikativ ta'sir ko'rsatuvchi yo'nalishlardan biri sanaladi. Chunki turizm mehmonxona xo'jaligi, transport, umumiy ovqatlanish, savdo, madaniyat, hunarmandchilik, sog'lomlashtirish, moliyaviy servislar va raqamli axborot xizmatlari bilan uzviy bog'langan holda hududiy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratadi.

O'zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ichki turizmni rag'batlantirish, hududlarning turistik salohiyatini ishga solish, ziyorat, ekologik, gastronomik, etno, sog'lomlashtirish va agroturizm yo'nalishlarini kengaytirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunda har bir viloyatning lokal turizm xizmatlari tarkibini statistik tahlil qilish hududiy resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Andijon viloyati Farg'ona vodiysining iqtisodiy jihatdan faol, aholi zichligi yuqori, savdo va xizmat ko'rsatish an'analari kuchli hududlaridan biridir. Viloyatning tarixiy-madaniy merosi, gastronomik imkoniyatlari, hunarmandchilik tajribasi, Xonobod kabi rekreatsion hududlari va transport aloqalari turizm xizmatlarini rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi. Shu bilan birga, turistik xizmatlar asosan Andijon shahri hamda ayrim markazlarda jamlangani, ko'plab tumanlarda joylashtirish, gidlik, raqamli axborot va kompleks turistik paketlar yetarli shakllanmagani ilmiy tahlilni talab qiladi.

Maqolaning maqsadi Andijon viloyati misolida hududlarda lokal turizm xizmatlarining tarkibi va rivojlanish dinamikasini o'rganish, xizmatlar sohasi va turizm infratuzilmasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash hamda hududiy turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyatining lokal turizm xizmatlari tizimi, predmeti sifatida esa xizmatlar tarkibi, rivojlanish tendensiyalari va hududiy taqsimot xususiyatlari olindi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm xizmatlari iqtisodiy adabiyotlarda murakkab, ko'p komponentli va hududiy resurslarga kuchli bog'liq xizmatlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Turizmning o'ziga xosligi shundaki, unda xizmat ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlari ko'pincha bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi, xizmat sifati esa inson omili, hudud imidji, transport qulayligi va servis madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Lokal turizm xizmatlari tushunchasi muayyan hududda mavjud tabiiy, tarixiy, madaniy, rekreatsion va iqtisodiy resurslar asosida shakllangan, mahalliy aholi hamda tashrif buyuruvchilarning turistik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlar tizimini anglatadi. Bunday xizmatlar tarkibiga joylashtirish vositalari, ovqatlanish, transport, ekskursiya va gidlik xizmati, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sog'lomlashtirish, savdo, hunarmandchilik va raqamli servislar kiradi.

Hududiy turizm rivojlanishini baholashda faqat turistlar soni yoki safarlar ko'rsatkichiga tayanish yetarli emas. Turizmdan olinadigan iqtisodiy samara sayyohning hududda qolish muddati, foydalangan xizmatlar turi, xarajatlar tarkibi, mahalliy tadbirkorlikka ta'siri va xizmatlar zanjirining qanchalik to'liq shakllanganiga bog'liq. Shu sababli joylashtirish vositalari quvvati, turistik firmalar faoliyati, xizmatlar hajmi, aholi jon boshiga xizmatlar ko'rsatkichi, hududiy taqsimot va qo'shimcha servislar bilan integratsiya darajasi muhim tahlil indikatorlari hisoblanadi.



Ilmiy-nazariy jihatdan lokal turizm xizmatlarini rivojlantirishda klaster yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Turistik klaster mehmonxona, transport, ovqatlanish, gidlik, madaniyat muassasalari, hunarmandlar, savdo subyektlari, mahalliy hokimliklar va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik tizimini ifodalaydi. Bunday hamkorlik turistik mahsulotni yakka xizmatdan kompleks paketga aylantiradi, marketing xarajatlarini kamaytiradi va hudud brendini kuchaytiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik, taqqoslama, tizimli, tarkibiy va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlilning axborot bazasini Andijon viloyati statistika boshqarmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan xizmatlar sohasi va turizmga oid press-relizlar tashkil etdi. Asosiy davr sifatida turizm faoliyati bo'yicha 2020–2024-yillar, xizmatlar sohasi bo'yicha esa 2021–2025-yillar olindi.

Dinamik tahlil orqali xizmatlar hajmi, turistik firmalar soni, joylashtirish vositalari, nomerlar fondi va joylashtirilgan shaxslar sonining o'zgarishi baholandi. Tarkibiy tahlilda turistik safarlarning maqsadlar bo'yicha taqsimlanishi, xizmatlar turlari hamda joylashtirish vositalarining funksional tarkibi ko'rib chiqildi. Hududiy taqqoslashda Andijon shahri, Xonobod shahri va tumanlar kesimidagi xizmatlar hajmi hamda turizm infratuzilmasi taqsimoti baholandi.

Maqolada lokal turizm xizmatlari alohida tarmoq sifatida emas, balki hududiy xizmatlar sohasi bilan integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qilindi. Bunday yondashuv Andijon viloyatida turizmning real iqtisodiy samarasini transport, ovqatlanish, savdo, yashash, moliyaviy xizmatlar, axborot texnologiyalari va madaniyat xizmatlari bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi.

### Tahlil va natijalar

Andijon viloyatida xizmatlar sohasi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega. 2025-yilning yanvar–dekabr oylarida viloyatda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 53 969,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,7 foizga oshgan. 2024-yilda xizmatlar hajmi 43 233,1 mlrd so'mni tashkil etgani hisobga olinsa, viloyatda xizmatlar bozorining iqtisodiy salmog'i tez kengayayotgani ko'rinadi (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval. Andijon viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi dinamikasi<sup>1</sup>

Yil	Xizmatlar hajmi, mlrd so'm	Izoh
2021	14 459,6	xizmatlar bozorining tiklanish bosqichi
2022	17 804,0	bosqichma-bosqich o'sish
2023	33 643,1	keskin kengayish davri
2024	43 233,1	2023-yilga nisbatan 13,1% o'sish
2025	53 969,6	2024-yilga nisbatan 14,7% o'sish



1-rasm. Bozor xizmatlari hajmining 2021-2025-yillardagi o'sish dinamikasi<sup>2</sup>

1 Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi, 2025-yil yanvar-dekabr press-relizi asosida tuzildi.

2 Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi, 2025-yil yanvar-dekabr press-relizi asosida tuzildi.



2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda xizmatlar hajmi qariyb 3,7 barobarga oshgan. Bu jarayon bir tomondan nominal qiymatlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan xizmatlar bozorining kengayishi, tadbirkorlik faolligining ortishi, aholining xizmatlarga bo'lgan talabi kuchayishi, elektron to'lovlar va raqamli servislarning ommalashuvi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida Andijon shahri viloyat xizmatlar bozorining asosiy markazi bo'lib qolmoqda. 2025-yilda Andijon shahrining umumiy bozor xizmatlaridagi ulushi 24,7 foizni yoki 13 343,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Asaka tumanida 2 476,8 mlrd so'mlik, Andijon tumanida 2 170,0 mlrd so'mlik, Shahrixon tumanida 2 005,8 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan. Eng past ko'rsatkich Ulug'nor tumanida kuzatilib, bu hududda xizmatlar hajmi 500,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmning 0,9 foizini tashkil etgan.

Lokal turizm xizmatlari rivojlanishi uchun xizmatlar sohasining umumiy salmog'i bazaviy shart hisoblanadi. Sayyoh hududga kelganda transport, ovqatlanish, joylashtirish, aloqa, moliyaviy to'lov, sanitariya, xavfsizlik, axborot va tibbiy yordam kabi ko'plab xizmatlardan foydalanadi. Shuning uchun umumiy xizmatlar sohasining o'sishi turizm uchun iqtisodiy asos yaratadi, biroq bu imkoniyatni real turistik mahsulotga aylantirish alohida marketing, klasterlashuv va sifat boshqaruvini talab qiladi (2-jadval).

2-jadval. 2025-yilda xizmatlar hajmining ayrim hududlar kesimidagi ko'rsatkichlari<sup>3</sup>

Hudud	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha jami	53 969,6	100,0	114,7
Andijon sh.	13 343,2	24,7	118,8
Xonobod sh.	883,2	1,6	118,0
Asaka	2 476,8	4,6	116,0
Andijon tumani	2 170,0	4,0	117,3
Shahrixon	2 005,8	3,7	116,8
Jalaquduq	1 587,1	2,9	118,6
Izboskan	1 750,4	3,2	118,5
Ulug'nor	500,1	0,9	116,1

Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlari tarkibini to'rt asosiy blokka ajratish mumkin: birinchisi – turistik safarlar va tashrif buyuruvchilar oqimi; ikkinchisi – turistik firma va tashkilotlar faoliyati; uchinchisi – joylashtirish vositalari; to'rtinchisi – transport, ovqatlanish, savdo, sog'lomlashtirish, madaniy tadbirlar, hunarmandchilik va raqamli servislarni qamrab oluvchi qo'shimcha turistik xizmatlar majmuasi. Ushbu bloklar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardan birining sustligi umumiy turistik mahsulot sifatiga ta'sir qiladi.

2024-yilda Andijon viloyatiga turistik maqsadlarda ichki turizmni amalga oshirgan fuqarolarning umumiy safarlari soni 12,2 ming atrofida bo'lib, 2023-yilga nisbatan 18,8 foizga oshgan. Maqsadlar bo'yicha taqsimotda bo'sh vaqt va dam olish yo'nalishi yetakchi o'rinda turadi. Bu holat viloyatda dam olish, rekreatsiya, oilaviy sayohat va qisqa muddatli ichki turizm xizmatlarini kengaytirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. 2024-yilda turistik safarlarning maqsadlar bo'yicha taqsimlanishi<sup>4</sup>

Safar maqsadi	Ming safar	Ulushi, %
Jami	12,0	100,0
Xizmat safari	3,3	27,5
O'qish	0,1	0,8
Bo'sh vaqt va dam olish	6,4	53,3
Qarindoshlarni yo'qlash	0,3	2,5
Davolanish	0,9	7,5
Tijorat	1,0	8,3

Jadvaldan ko'rinadiki, safarlarning 53,3 foizi bo'sh vaqt va dam olish maqsadiga to'g'ri keladi. Xizmat safari ulushining 27,5 foizni tashkil etishi esa biznes-turizm, seminar, trening, savdo uchrashuvlari, konferensiya hamda xizmat safarlariga mo'ljallangan mehmonxona va ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

3 Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi, 2025-yil yanvar-dekabr press-relizi asosida tuzildi.

4 Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi, turizm va dam olishni rivojlanishi bo'yicha 2024-yil press-relizi.




Davolanish maqsadidagi safarlar ulushi 7,5 foiz bo'lib, bu sog'lomlashtirish turizmi uchun ham alohida segment mavjudligini anglatadi.

2024-yilda Andijon viloyatida 16 ta turistik firma va tashkilot faoliyat yuritgan. Ular tomonidan 694 kishiga xizmat ko'rsatilgan va jami 1 338 ta sayyohlik yo'llanmasi sotilgan. 2023-yilga nisbatan turistik firma va tashkilotlar soni 2 taga yoki 14,2 foizga, xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 20,5 foizga, sotilgan yo'llanmalar soni esa 2,3 barobarga oshgan. Bu ko'rsatkichlar pandemiyadan keyingi davrda turizm tadbirkorligi faollashayotganini anglatadi (4-jadval; 2-rasm).

4-jadval. Turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari<sup>5</sup>

Yil	Firmalar soni	Xizmat ko'rsatilgan shaxslar	Sotilgan yo'llanmalar
2020	4	350	550
2021	5	480	650
2022	4	520	950
2023	14	564	1 280
2024	16	694	1 338

Turistik firma faoliyati dinamikasi



2-rasm. Turistik firmalar, xizmat ko'rsatish va yo'llanmalar dinamikasi<sup>6</sup>

Hududlar kesimida turistik firma va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahrida joylashgan. 2024-yilda viloyatdagi 16 ta turistik firma va tashkilotning 8 tasi, ya'ni 50 foizi Andijon shahriga to'g'ri kelgan. Xonobod shahrida 2 ta, Andijon, Asaka, Izboskan, Oltinko'l va Shahrixon tumanlarida ayrim turistik firmalar mavjud. Bu holat turizm xizmatlarining hududiy jihatdan notekis rivojlanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, tumanlarda turistik firmalar faoliyatini kuchaytirish, gidlik xizmati va mahalliy marshrutlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, firmalar sonining oshishi ularning iqtisodiy samaradorligi yetarli degani emas. Agar 2024-yilda 16 ta firma 694 kishiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, o'rtacha bir firma yil davomida 43–44 kishiga xizmat ko'rsatgan bo'ladi. Bu ko'rsatkich turistik firmalarning ko'lami hali kichik, xizmatlari esa ko'proq vositachilik yoki epizodik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Demak, turistik firmalar faoliyatini kompleks paketlar, hamkorlik tarmoqlari va raqamli marketing orqali kengaytirish zarur.


Joylashtirish vositalari turizm xizmatlarining asosiy infratuzilmaviy elementi hisoblanadi. 2024-yilda Andijon viloyati hududida 38 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositasi faoliyat yuritib, ularda 1 248 ta nomer va 2 426 ta joy mavjud bo'lgan. Hisobot davrida ushbu vositalarga 76 862 kishi joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan obyektlar soni 18,8 foizga, nomer fondi 15,2 foizga, joylar soni 12,4 foizga va joylashtirilgan shaxslar soni 9,0 foizga oshgan (5-jadval; 3-rasm).

<sup>5</sup> Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

<sup>6</sup> Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

5-jadval. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining dinamikasi<sup>7</sup>

Yil	Obyektlar soni	Joylashtirilganlar, ming kishi	Nomerlar soni	Joylar soni
2020	16	58,3	850	1 585
2021	22	64,5	955	1 854
2022	28	69,2	1 021	1 922
2023	32	70,1	1 083	2 158
2024	38	76,9	1 248	2 426

3-rasm. Joylashtirish vositalari va joylashtirilgan shaxslar soni<sup>8</sup>

Joylashtirish infratuzilmasi 2020-yilda 16 ta obyektни tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 38 taga yetgan. Joylar soni ham 1 585 tadan 2 426 taga oshgan. Biroq hududiy taqsimotda markazlashuv yuqori: mehmonxona xizmatlarining asosiy qismi Andijon shahrida jamlangan, tumanlarda esa joylashtirish infratuzilmasi cheklangan. Agar turistik obyekt tumanlarda joylashgan bo'lsa-yu, u yerda tunash va ovqatlanish imkoniyati yetarli bo'lmasa, sayyoh hududda uzoq qolmaydi va turistik xarajatlarning katta qismi markaziy shaharga o'tib ketadi.

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari tarkibiga sanatoriya-kurort tashkilotlari, sog'lomlashtirish maskanlari, dam olish uylari, pansionatlar, kempinglar, dam olish bazalari va turistik bazalar kiradi. 2024-yilda viloyatda 38 ta ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositasi faoliyat yuritgan, ularda 542 ta nomer va 2 171 ta joy mavjud bo'lgan. Ushbu vositalarga 19 530 kishi joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan joylashtirilgan shaxslar sonining 20,2 foizga oshishi sog'lomlashtirish va rekreatsion turizm segmentida talab ortayotganini ko'rsatadi.

Individual va boshqa joylashtirish vositalari ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lsa-da, ularning istiqboli yuqori. 2024-yilda Andijon viloyatida 4 ta individual va boshqa joylashtirish vositasi faoliyat yuritib, ularda 12 ta nomer va 72 ta joy mavjud bo'lgan. Bu yo'nalish oilaviy mehmon uylari, agroturizm, qishloq turizmi va etnoturizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholining turizmdan bevosita daromad olish imkoniyatini oshiradi.

Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlarining hududiy rivojlanishi bir tekis emas. Xizmatlar sohasi, turistik firmalar va mehmonxona infratuzilmasi asosan Andijon shahrida jamlangan. Xonobod shahri ham turizm nuqtayi nazaridan muhim rekreatsion hudud sifatida ajralib turadi. Tumanlar esa turli darajadagi resurslarga ega bo'lsa-da, ularning ko'pchiligida turizm xizmatlari zanjiri to'liq shakllanmagan.

Andijon shahri viloyat turizm xizmatlarining markaziy tuguni hisoblanadi. Bu yerda turistik firmalar, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari, savdo va bank-moliya infratuzilmasi, transport bog'lanishlari, ma'muriy va madaniy obyektlar ko'proq joylashgan. Shu sababli shaharni viloyatning asosiy turistik kirish nuqtasi va xizmatlar markazi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

7 Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

8 Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



Xonobod shahri tabiiy-rekreatsion imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Uning tog'oldi hududlarga yaqinligi, dam olish maskanlari va nisbatan qulay ekologik muhiti qisqa muddatli dam olish, oilaviy sayohat, sog'lomlashtirish va ekologik turizm xizmatlari uchun muhim omildir. Xonobod bo'yicha alohida turistik brend va marshrutlar ishlab chiqish viloyat turizmini diversifikatsiya qiladi.

Tumanlarda turizm xizmatlari ko'proq tarqoq xarakterga ega. Ayrim tumanlarda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari mavjud, ammo gidlik xizmati, turistik firma, raqamli axborot, mahalliy ovqatlanish va transport bilan bog'langan yaxlit turistik paketlar yetarli emas. Natijada turistik resurs mavjud bo'lsa-da, undan iqtisodiy xizmatlar zanjiri sifatida foydalanish darajasi past bo'lib qolmoqda.

Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlari rivojlanishiga iqtisodiy, infratuzilmaviy, madaniy, raqamli va kadrlar bilan bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy omillar orasida aholi daromadlari, tadbirkorlik faolligi, xizmatlar bozorining kengayishi va investitsiya imkoniyatlari muhim o'rin tutadi. Xizmatlar sohasining o'sishi turizm uchun qulay muhit yaratmoqda, ammo kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari va marketing salohiyati har doim ham yetarli emas.

Infratuzilmaviy omillar yo'l, transport, mehmonxona, ovqatlanish, sanitariya, internet, to'lov tizimlari, yo'l ko'rsatkichlari va xavfsizlik xizmatlarini qamrab oladi. Sayyoh uchun hududdagi biror tarixiy yoki tabiiy obyektning o'zi yetarli emas; u qulay yetib borish, ma'lumot olish, ovqatlanish, dam olish va to'lov qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu sababli infratuzilma turizmni rivojlantirishning asosiy shartidir.

Madaniy-tarixiy omillar Andijon viloyatining muhim ustunligidir. Viloyat o'zining tarixiy merosi, adabiy-ma'rifiy an'analari, mahalliy taomlari, bozor madaniyati, hunarmandchiligi va Farg'ona vodiysi madaniyatiga xos hayot tarzi bilan turizm uchun boy resursga ega. Biroq madaniy resurslarni turistik mahsulotga aylantirish uchun ularni hikoya, marshrut, gidlik matni, interaktiv tajriba, festival, ko'rgazma va savdo mahsuloti shaklida paketlash zarur.

Raqamli omillar bugungi turizm bozorida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Sayyohlar manzilni ko'pincha internet, ijtimoiy tarmoqlar, xaritalar, videolar va onlayn sharhlar orqali tanlaydi. Andijon viloyatida yagona turistik platforma, tumanlar kesimidagi raqamli xaritalar, onlayn bron qilish, ko'p tilli axborot materiallari va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam kontent strategiyasi yo'lga qo'yilishi zarur.

Kadrlar va xizmat sifati ham turizm raqobatbardoshligining muhim omilidir. Gidlar, mehmonxona xodimlari, restoran xodimlari, transport xizmatlari va turistik firma mutaxassislari mijozlar bilan ishlash madaniyati, xorijiy til, sanitariya, xavfsizlik va raqamli servislar bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalishda qisqa muddatli o'quv kurslari va amaliy treninglar samara beradi (6-jadval).

#### 6-jadval. Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlari rivojlanishining SWOT tahlili<sup>9</sup>

<p><b>Kuchli tomonlar:</b> qulay geografik joylashuv; xizmatlar sohasi hajmining o'sishi; Andijon shahri va Xonobodda turizm markazlarining shakllanishi; tarixiy-madaniy, gastronomik va rekreatsion imkoniyatlar; aholining xizmat ko'rsatish tajribasi.</p>	<p><b>Zaif tomonlar:</b> turistik firmalar va joylashtirish vositalarining hududlar bo'yicha bosqichma-bosqich kengayib borayotgani; tumanlarda turistik xizmatlar zanjirini yanada to'liq shakllantirish uchun imkoniyatlar mavjudligi; raqamli marketingni rivojlantirish salohiyati; ko'p tilli axborot materiallari va gidlik xizmatlarini kengaytirish istiqbollari.</p>
<p><b>Imkoniyatlar:</b> Xonobod rekreatsion turizm zonasini rivojlantirish; gastronomik va hunarmandchilik turizmini kengaytirish; oilaviy mehmon uylari va agroturizmni yo'lga qo'yish; tumanlararo turistik marshrutlar yaratish; raqamli platformalar orqali ichki turistlarni jalb qilish.</p>	<p><b>Xavf-xatarlar:</b> xizmat sifati past bo'lsa hudud imidjiga salbiy ta'sir; infratuzilma yetarli bo'lmasa sayyohlar oqimining qisqa muddatli bo'lib qolishi; turizm daromadlarining markazda jamlanishi; ekologik va madaniy obyektlardan tartibsiz foydalanish xavfi.</p>

Andijon viloyati misolida o'tkazilgan tahlil lokal turizm xizmatlarini rivojlantirishda uchta asosiy masala hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Birinchisi – xizmatlar tarkibini kengaytirish. Viloyatda mehmonxona va ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni oshmoqda, turistik firma va tashkilotlar faoliyati jonlanmoqda. Shu bilan birga, qo'shimcha xizmatlar, xususan, gidlik, tematik ekskursiya, gastronomik tajriba, hunarmandchilik namoyishi, mahalliy mahsulotlar savdosi, interaktiv madaniy dasturlar va raqamli servislarni yanada kengroq integratsiyalash uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud.

Ikkinchisi – hududiy diversifikatsiya. Turizm xizmatlari asosan Andijon shahrida jamlanib qolsa, viloyatning boshqa tumanlari turizm daromadlaridan yetarli darajada foyda olmaydi. Shuning uchun har bir tuman o'zining turistik ixtisoslashuvini aniqlashi kerak. Masalan, Xonobod – rekreatsion va ekologik turizm, Asaka – biznes va

9 Manba: muallif ishlanmasi



sanoat turizmi, Shahrixon – madaniy va savdo turizmi, boshqa tumanlar esa ziyorat, qishloq, gastronomik yoki hunarmandchilik turizmi yo'nalishlarida rivojlantirilishi mumkin.

Uchinchisi – boshqaruv va marketing. Turizm xizmatlari bozori o'z-o'zidan barqaror rivojlanishi qiyin; u koordinatsiya, brendlash, standartlash va targ'ibotni talab qiladi. Andijon viloyati bo'yicha yagona turistik brend, xarita, marshrutlar katalogi, onlayn bron qilish imkoniyati, ko'p tilli kontent va ijtimoiy tarmoq strategiyasi ishlab chiqilsa, hududning turistik ko'rinuvchanligi oshadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, turizmdan yuqori iqtisodiy samara olish uchun xizmatlarning son jihatdan o'sishi yetarli emas; ular sifat, komplekslik, hududiy qamrov va marketing jihatidan ham takomillashtirilishi kerak. Ayniqsa, sayyohning hududda qolish muddatini uzaytirish muhim. Buning uchun bir kunlik ekskursiyalardan tashqari 2–3 kunlik turpaketlar, oilaviy dam olish dasturlari, gastronomik marshrutlar, ziyorat va madaniy sayohatlar, sog'lomlashtirish hamda rekreatsion paketlar ishlab chiqilishi zarur.

Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

- Hududiy turistik klasterlarni shakllantirish. Andijon viloyatida turizm xizmatlarini samarali rivojlantirish uchun tumanlararo turistik klasterlar tashkil etish lozim. Klaster tarkibiga mehmonxona va mehmon uylari, restoranlar, transport xizmati, turistik firmalar, gidlar, hunarmandlar, madaniyat muassasalari, mahalliy hokimliklar, oliy ta'lim muassasalari va bank-moliya tashkilotlari kiritilishi mumkin.

- Xonobod rekreatsion turizm zonasini kuchaytirish. Xonobod shahri viloyatning eng muhim rekreatsion nuqtalaridan biri sifatida alohida brendga ega bo'lishi kerak. Bu hududda ekologik sayr yo'laklari, oilaviy dam olish maskanlari, sog'lomlashtirish xizmatlari, sport-rekreasiya zonalari, mahalliy ovqatlanish nuqtalari va onlayn bron qilish tizimlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

- Oilaviy mehmon uylari va agroturizmni rivojlantirish. Tumanlarda oilaviy mehmon uylari, qishloq turizmi, agroturizm, milliy taom tayyorlash ustaxonalari, hunarmandchilik darslari va mahalliy urf-odatlarini namoyish etuvchi dasturlar tashkil etish zarur. Bu xizmatlar mahalliy aholining turizmdan to'g'ridan-to'g'ri daromad olishiga imkon beradi.

- Gastronomik turizm marshrutlarini ishlab chiqish. Andijon va Farg'ona vodiysi gastronomik an'analari ichki turizm uchun kuchli jalb qiluvchi omil bo'la oladi. Mahalliy taomlar, nonvoychilik, shirinliklar, milliy ichimliklar, bozor madaniyati va oilaviy oshxona tajribalariga asoslangan gastronomik marshrutlar ishlab chiqish kerak.

- Raqamli turizm platformasini yaratish. Andijon viloyati bo'yicha turistik obyektlar, mehmonxonalar, mehmon uylari, restoranlar, marshrutlar, gidlar, transport xizmatlari, tadbirlar taqvim, narxlar, xaritalar va bron qilish imkoniyatlarini birlashtiruvchi yagona portal yoki mobil ilova ishlab chiqilishi zarur.

- Kadrlar tayyorlash va xizmat sifatini oshirish. Oliy ta'lim muassasalari, kollejlari va o'quv markazlari bilan hamkorlikda gidlik, mehmonxona boshqaruvi, restoran servisi, xorijiy til, raqamli marketing, mijozlar bilan ishlash va sanitariya-gigiyena bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Andijon viloyati misolida olib borilgan tahlil hududda lokal turizm xizmatlarini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va infratuzilmaviy asoslar bosqichma-bosqich shakllanayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar sohasi hajmi 2021–2025-yillar oralig'ida sezilarli darajada o'sib, 2025-yilda 53 969,6 mlrd so'mga yetgan. Bu turizm xizmatlarini kengaytirish uchun qulay iqtisodiy muhit mavjudligini bildiradi.

2024-yilda viloyatda turistik safarlar, turistik firma va tashkilotlar, joylashtirish vositalari hamda ixtisoslashtirilgan joylashtirish xizmatlari bo'yicha ijobiy dinamika kuzatilgan. Turistik firma va tashkilotlar soni 16 taga, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 38 taga, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni ham 38 taga yetgan. Joylashtirilgan shaxslar sonining o'sishi viloyatda turizm xizmatlariga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, lokal turizm xizmatlari tarkibi va hududiy taqsimotida muammolar mavjud. Turistik firmalar va joylashtirish infratuzilmasi asosan Andijon shahri hamda qisman Xonobod shahrida jamlangan. Ko'plab tumanlarda turistik xizmatlar zanjiri to'liq shakllanmagan. Individual joylashtirish vositalari, oilaviy mehmon uylari, agroturizm va gastronomik turizm kabi yo'nalishlar hali yetarlicha rivojlanmagan.

Maqolada ilgari surilgan takliflar – hududiy turistik klasterlar yaratish, Xonobod rekreatsion zonasini kuchaytirish, oilaviy mehmon uylari va agroturizmni kengaytirish, gastronomik marshrutlar ishlab chiqish, raqamli turizm platformasini yaratish, kadrlar tayyorlash va mahalliy tadbirkorlarni rag'batlantirish – Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Andijon viloyatida lokal turizm xizmatlarini rivojlantirish hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish, mahalliy aholi daromadlarini oshirish va viloyatning ijobiy imidjini shakllantirishda muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr. Press-reliz. 20.01.2026.
2. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar-dekabr. Press-reliz. 20.01.2026. URL: <https://andstat.uz/uploads/docs/2025.12xizmat1.pdf>
3. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Andijon viloyatida turizm va dam olishni rivojlanishi. 2024-yil uchun. Press-reliz. 12.08.2025. URL: <https://andstat.uz/uploads/docs/2024.Turizm%20va%20dam%20olishni%20rivojlantirish.pdf>
4. UN Tourism. International Recommendations for Tourism Statistics 2008. Madrid/New York: United Nations, 2010.
5. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
6. Kotler P., Bowen J. T., Makens J. C., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. Pearson Education, 2017.
7. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. Pearson Education, 2008.
8. Inskeep E. Tourism Planning: An Integrated and Sustainable Development Approach. New York: Van Nostrand Reinhold, 1991.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7408455>
10. O'zbekiston Respublikasi turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik nashrlar.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>